


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXODIAGNOSTIKASI

O'QUV DASTURI

Kunduzgi va sirtqi bo'lim uchun

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim soha:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110200 – Maktabgacha ta'lim

Termiz – 2024

Fan/modul kodi BPsPd304	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 10	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi	66/64	114/56	300
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p><i>Fanning o'qitishdan maqsad:</i> Talabalarni bolalar psixologiyasi fanining predmeti, fanning shakillanish tarixi, maktabgacha yosh davrining muhim xususiyatlari, bilish jarayonlari, bolaning rivojlanishida faoliyatning o'rni bo'yicha dastlabki bilim va ko'nikma va malakalarni berish imkoniyatini beradi.</p> <p><i>Fanning vazifalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - psixologik tadqiqot va tekshiruvlarni tashkil etishga; - psixodiagnostik metodikalarni tadqiqotlarning maqsad va vazifalariga ko'ra tanlashga; - yangi psixodiagnostik metodikalarni moslashtirish, modifikasiya qilish va ularni psixometrik talablar bo'yicha tekshirishga; - psixodiagnostik metodikalarni qo'llashga; - psixodiagnostik metodikalarning natijalarini psixologik sharhlashga; - psixodiagnostik metodikalar natijalarini rasmiylashtirishga va ular asosida tavsiyalar taqdim etishga o'rgatishdan iborat; <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- mavzu. Bolalar psixologiyasi o'quv fani sifatida. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanning asosiy kategoriyalari. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Bolalar psixologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot.</p> <p>2 – mavzu. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari. Bola psixikasining o'rganish printsiplari. Psixologik tadqiqotni o'tkazish shakllari Bolalar psixologiyasining asosiy va yordamchi metodlari.</p> <p>3 – mavzu. Chaqaloqlik va go'daklik davrining psixologik xususiyatlari. Chaqaloqlik davrida jismoniy rivojlanish. Chaqaloqlik davrida psixologik rivojlanish xususiyatlari, sensor va pertseptiv hamda kognitiv rivojlanish predmetlar bilan o'ynash his-tuyg'uning o'sishi yoki jonlanishi kompleksi. Fiziologik o'zgarishlarning psixik rivojlanishga ta'siri. Bilish jarayonlarining ishgatushishi haqida. Chaqaloqlik davrining diagnostikasini o'ziga xosligi.</p> <p>Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari. Go'dak va muloqot, go'daklik davrida nutqning vujudga kelishi, kognitiv va pertseptiv jarayonlarni rivojlanishi uchun shart-sharoitlar. Go'daklik davrining diagnostikasini o'ziga xosligi.</p> <p>4- mavzu. Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlari. Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat malakalari, kognitiv va nutqning rivojlanishi. Bola tafakkurida egotsentirizmning yuzaga kelishi predmetli harakat faoliyatlarini rivojlanishi. Ilk bolalik davrida nutqning o'sishi. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida etakchi faoliyat sifatida. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglash. Ilk bolalik davrida psixik taraqqiyot diagnostikasi.</p>			

5-mavzu. O'yin bog'cha yoshida yetakchi faoliyat sifatida

D.B.Elkonin, V.S.Muxina o'yin faoliyati nazariyalari. Bog'cha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari. Predmetli, syujetli, rolli, qoidal, konstruktorlik o'yinlari bolaning psixik taraqqiyotiga ta'siri. Bola tug'ilganidan to maktab ta'limigacha davrida uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek, o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

6 - mavzu. Maktabgacha tarbiya yoshida mehnat faoliyatining o'rni.

Bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari. Bog'cha yoshidagi bolalarning kattalar mehnatiga munosabati. Mehnat faoliyatining bola ruhiyatiga ta'siri. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qish garovi.

7-mavzu.Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgining rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Z.M.Istominaning tadqiqotlari. Maktabgacha yoshidagi bolalar sezgi turlarining rivojlanishi. Bu davrda hid bilish sezgisi ham rivojlanadi. Teri orqali tuyish hamda og'irlikni seza olish xususiyati ham rivojlanadi.

8-mavzu.Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokning rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Fransuz psixologi A.Bine va nemis psixologi V.Shtern, A.A.Lyublinskaya va N.X.Shvachkinning olib borgan tadqiqotlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vaqtni, fazoni va harakatni idrok qilishni rivojlanishi.

9-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Maktabgacha yoshda diqqatning turlari va xususiyatlarining rivojlanishi. N.M.Menchinskaya tadqiqotlari. Bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bolalarda ixtiyoriy diqqatni rivojlantirishda o'yinning roli juda kattadir

10-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotiraning rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Bolalarda xotira jarayonlari va turlarini rivojlanishi.Xotira tasavvurlarini shakllanishi. Xotiraning nerv fiziologik asosi. A.A.Smimov ma'noli materialni esda olib qolishning bolalar uchun yengil ko'chishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq narsa emasligini ta'kidlab o'tadi

11-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalar xayolining rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Xayol protsessining dastlabki ko'rinishlari bolada 2 yoshga bo'lib, 3 yoshga qadam qo'yganda ko'rina boshlaydi. Ikki yoshli bolalarda ko'rinadigan dastlabki xayol ma'lum bir maqsadni ko'zlamaydigan ixtiyorsiz xayoldir.Tish chiqishi bolalarda xayol protsessini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Ana shu davrdan boshlab bola tevarak – atrofdagi kishilarni so'zini yaxshi tushunadigan bo'lib o'zidagi tasavvurlar zapasini bevosita idrok qilingan narsalar orqaligina emas, balki katta yoshli odamlar nutqi orqali ham to'ldirib boriladi.

12-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Tafakkur ham boshqa psixik jarayonlar kabi bolalarda yoshligidan boshlab taraqqiy eta boshlaydi. Tafakkur bilish jarayonining eng yuksak shaklidir. U shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo'lgan aqliy jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyoni bilish faoliyati ikki yo'ldan borishi mumkin. Bevosita yo'l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarni yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko'z

oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir.

13-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning rivojlanishi va psixodiagnostikasi

Bola nutqni egallagan holda tug'ilmaydi. Bola nutqning taraqqiyoti uning atrofidagi katta odamlar tilining ta'siri ostida rivojlanib boradi. Bolaning atrofidagi katta odamlar onasi, otasi, akasi, ukasi kabi qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o'rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin protsessni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqib boshlaydi. Bola 2 – 3 haftalik bo'lgach, unda tovushlarga nisbatan elementar tarzda bo'lsa ham reaksiya yuzaga kela boshlaydi. Unday keyingi davrda esa, ya'ni bola 2 – 3 oylik bo'lgach tovush bilan tovush chiqarayotgan manba o'rtasida assotsiatsiya maydonga keladi.

14-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda irodaviy-harakatlarning rivojlanishi va uning diagnostikasi

Irodaviy harakatlar ma'lum maqsad asosida amalga oshiriladigan, to'la anglangan harakat bo'lgani uchun bunday murakkab harakatlar hali chaqaloq bolalarda bo'lmaydi. Chaqaloq bolalardagi faollik asosan ixtiyorsiz, reflektor harakatlardan iborat bo'ladi. Chaqaloq bolalar o'zlarining bironta ham harakatlarini idora qila olmaydilar. Masalan, kichkina bola o'ziga yoqqan yoki uni qiziqtirgan biror narsani ko'rgan paytida juda ko'p betartib (qo'l-oyoqlari, boshi bilan) harakatlar qila boshlaydi. Lekin harakatlarning birontasi ham ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lmaydi. Bola uch-to'rt oylik bo'lgandagina o'zining boshini tik holatda ushlay oladigan bo'ladi. Ana shu davrdan boshlab bolaning ixtiyoriy harakatlari rivojlana boshlaydi. Bola 5-6 oylik bo'lgach tanasining muvozanatini saqlab bimalol o'tira oladi, qo'llari bilan o'z atrofidagi narsalarni ushlab ko'radigan bo'ladi. Ana shu tariqa bolaning ixtiyoriy harakatlari rivojlana borib, bola bir yoshga to'lgach, o'z harakatlarini ixtiyoriy ravishda idora qilib yura boshlaydi.

15-mavzu. Maktabgacha yosh davrida o'quv faoliyati

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Bolalar psixologiyasi fan sifatida
2. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari.
3. Chaqaloqlik va go'daklik davrining psixologik xususiyatlari
4. Ilk bolalik davri va uning psixodiagnostikasi
5. Maktabgacha tarbiya yosh davri va taraqqiyot psixodiagnostikasi
6. Maktabgacha yoshiga doir tadqiqotlar
7. O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida
8. Maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyati
9. Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari (Sezgi)taraqqiyoti
10. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari(Idrok)ning rivojlanishi.
11. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari(diqqat)ning rivojlanishi.
12. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari(Xotira)ning rivojlanishi.
13. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari(Xayol)ning rivojlanishi.
14. Maktabgacha davrida tafakkur taraqqiyoti
15. Maktabgacha yoshidagi bola nutqining rivojlanishi
16. Irodaviy-harakatlarning bolalarda rivojlanishi
17. Maktabgacha yoshda motivlarning paydo bo'lishi.
18. Bolaning o'z – o'zini anglashi va motivatsion sohasining rivojlanish jarayoni.
19. Sotsiometriya metodining o'ziga xos jihatlari. Turli yosh guruhlarida psixologik

iqlimni o'rganish metodlari.

20. Maktabgacha yosh davrida o'quv faoliyati

21. Maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyati

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Amaliy mashg'ulot bo'yicha talabalar psixodiagnostika metodikalarini tatbiq qilishi va ular yuzasidan psixodiagnostik bayonnomalar shaklantiradilar.

IV. Seminar mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Bolalar psixologiyasi o'quv fan sifatida
2. Bolalar psixologiyasi fanining metodlari
3. Bolalar psixologiyasi fanining umumiy muammolarini o'rganilishi
4. Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlari
5. Go'daklik davrining psixologik xususiyatlari
6. Ilk bolalalik davri fiziologik va jismoniy rivojlanish va xatti-xarakat muammolari.
7. Ilk bolalalik davrida sezgi va idrokning rivojlanishi
8. Ilk bolalalik davrida diqqatning rivojlanishi
9. Ilk bolalalik davrida xotiraning rivojlanishi
10. Ilk bolalalik davrida xayolning rivojlanishi
11. Ilk bolalalik davrida tafakkurning rivojlanishi.
12. Ilk bolalalik davrida nutqning o'sishi.
13. Aqliy rivojlanish, predmetli faoliyat ilk bolalik davrida yetakchi faoliyat sifatida.
14. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglash.
15. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari.
16. Maktabgacha yoshiga doir tadqiqotlar.
17. O'yin maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat sifatida.
18. Maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyatining xususiyatlari.
19. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari (sezgi va idrok) ning rivojlanishi.
20. Bolalarda diqqatning rivojlanishi va psixodiagnostikasi
21. Bolalarda xotiraning rivojlanishi va psixodiagnostikasi
22. Bolalarda xayolning rivojlanishi va psixodiagnostikasi
23. Bolalarda tafakkurning rivojlanishi va psixodiagnostikasi
24. Bolalarda nutqining rivojlanishi va psixodiagnostikasi
25. Bolalarda irodaviy-harakatlarning rivojlanishi va uning diagnostikasi
26. Bolaning o'z-o'zini anglashi va motivatsion sohasining rivojlanish jarayoni.
27. Sotsiometriya metodining o'ziga xos jihatlari.
28. Turli yosh guruhlarda psixologik iqlimni o'rganish metodlari.
29. Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi
30. Maktabgacha yosh davrida o'quv faoliyati

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Bolalar psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari.
2. Bola psixikasini o'rganish printsiplari, tadqiqot shakllari
3. Maktabgacha tarbiya yosh davri va taraqqiyot psixodiagnostikasi
4. O'yin bog'cha yoshida yetakchi faoliyat sifatida
5. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari: (sezgi, idrok) ning rivojlanishi.
6. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari: (diqqat, xotira, xayol) ning rivojlanish
7. Maktabgacha yoshda bilish jarayonlari: (nutq, tafakkur) ning rivojlanishi.
8. Maktabgacha tarbiya yoshida qaysarlik va negativizmni shakllanishining psixologik sabablari.

9. Maktabgacha yoshidagi bolalarda muloqotdagi qiyinchilikni psixologik xususiyatlar.
10. Maktabgacha yoshida kattalar bilan munosabatlar masalasi.
11. Maktabgacha yoshdagi inqiroz tasnifi.
12. Maktabgacha yoshda motivlarning paydo bo'lishi.
13. Maktabgacha yoshda nutq rivojlanishi va uni o'rganish.
14. Maktabgacha yoshda rolli o'yinlarning o'rni va ahamiyati.
15. Maktabga psixologik tayyorgarlik diagnostikasi

Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan mustaqil ta'lim soatlari hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referat, krossvord, sxema, taqdimot materialari, tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI Kurs ishi uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Bolalar psixologiyasi muammolarini o'rganilishi.
2. Chaqaloqlik davrining psixologik xususiyatlarini diagnostika qilish.
3. Ilk bolalik davri va uning psixologik xususiyatlari.
4. Maktabgacha tarbiya yosh davri va taraqqiyot.
5. O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida.
6. Maktabgacha yoshida bilish jarayonlari taraqqiyoti.
7. Maktabgacha davrida tafakkur taraqqiyoti.
8. Maktabgacha yoshidagi bola nutqining rivojlanishi.
9. Xayolning bolalarda rivojlanishi.
10. Bolaning o'z – o'zini anglashi va motivatsion sohasining rivojlanish jarayoni.
11. Irodaviy-harakatlarning bolalarda rivojlanishi.
12. Maktabgacha yosh davrida o'quv faoliyati.
13. Bola psixikasini o'rganish tamoyillari.
14. Yurishni o'rganish va uning bola taraqqiyotidagi o'rni.
15. Predmetli faoliyat va uning bola psixik taraqqiyotdagi o'rni.
16. O'yin bog'cha yoshida etakchi faoliyat sifatida.
17. Bola psixik rivojlanishida o'yinning ahamiyati.
18. Maktabgacha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari.
19. Bolalar diqqatining rivojlanishi.
20. Iroda rivojlanishining asosiy aspektlari.
21. Ilk bolalik davrida so'z va predmetlar o'rtasidagi bog'likliklarni aniqlash.
22. Uch yoshlilarning psixologik xususiyatlari.
23. Maktabgacha yoshiga doir tadqiqotlar.
24. Maktabgacha yoshida kattalar bilan munosabatlar masalasi.
25. Maktabgacha yoshdagi inqiroz tasnifi.
26. Maktabgacha yoshda motivlarning paydo bo'lishi.
27. Maktabgacha yoshda nutq rivojlanishi va uni o'rganish.
28. Maktabgacha yoshda rolli o'yinlarning o'rni va ahamiyati.
29. Sotsiometriya metodining o'ziga xos jihatlari.
30. Turli yosh guruhlarda psixologik iqlimni o'rganish metodlari.
31. O'quv faoliyati rivojlanishining asosiy xususiyatlari.
32. O'quvchilarning xavotirlanish darajasi va o'zlashtirmasligi o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq qilish.
33. Olti yoshli bolalarda shaxs xususiyatlarini rivojlanishi.
34. Maktabgacha tarbiya yoshida qo'rquv holatini namoyon bo'lishi.
35. Maktabgacha tarbiya yoshida egotsentrizmni shakllanishi.
36. Maktabgacha yoshidagi bolalarda agressiv holatni shakllanishining psixologik xususiyatlari.
37. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda psixologik ximoya mexanizmlarini namoyon bo'lishi.

38. Maktabgacha tarbiya yoshida qaysarlik va negativizmni shakllanishining psixologik sabablari.

39. Maktab o'quvchilarini tengdoshlari bilan muloqot motivlarini shakllanishining dinamikasi.

40. Maktabgacha yoshidagi bolalarda muloqotdagi qiyinchilikni psixologik xususiyatlar.

VII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi fanining predmeti va vazifalari, fanining metodlari va metodikalari, psixodiagnostik tadqiqot va tekshiruvlar; psixodiagnostik metodlarini psixometrik mezonlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;

- Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika fanining metodlarini tadqiqotlarda qo'llashni, metod va metodikalarning o'zaro bog'liqligiga ko'ra tatbiq etishni, psixologik testlarning psixometrik mezonlarini, testlarning yutuq va kamchiliklarini, psixodiagnostik metodikalarni xususiyatlariga ko'ra tatbiq etishni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

psixodiagnostik metod va metodikalarni qo'llash, psixodiagnostik metodikalarni psixometrik mezonlarga ko'ra foydalanish, psixodiagnostik metodikalarni ishonchliligi va validligini ta'minlash, psixodiagnostik metodikalarni shakllantirish va moslashtirish, metodikalarni testlashtirish sohalariga muvofiq tanlash va psixodiagnostik metodikalarni tatbiq etish xususiyatlarini takomillashtirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

IX. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. Z. Nishanova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent — 2006
2. Z.T.Nishanova, G.Alimova, A.G'.Turg'unboeva M.X.Asranboeva "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" darslik TOSHKENT- 2017
3. Narbasheva M. A. "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" T: Kitob-nashr 2020y.
4. G'oziev E.G'. Ontogenez psixologiyasi.-T.: Noshir. 2010

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF - 6108 - son Farmoni.
3. Davletshin M.G. va boshqalar "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya" T.TDPU, 2004 yil.
4. Norbosheva M. O. Maktabgacha ta'limda psixodiagnostika. Termiz, 2015
5. Norbosheva M. O. Bolalar psixologiyasi. Toshkent, 2002
7. Axborot manbalari
<http://www.tdpu.uz/>
<http://www.pedagog.uz/>

<http://www.Ziyonet.uz/>
<http://www.edu.uz/>
<http://www.psychology.uz/>
<http://www.psychology.net.ru/>

Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Kengashining 2024 yil 30-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul uchun mas'ullar:

Narbasheva M. A. – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Aminova D.O. – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Narbasheva M. O.- TerDPI Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Almardonova R.N.- Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi, psixologiya fanlari nomzodi, v/b.dotsent.